



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG'ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024-yil 29-oktabr

576-11-0-Q/24

Farg'ona viloyati hokimligi

### Shahar jamoat transportida yo'lovchilar tashish haqining tabaqlashtirilgan tariflarini belgilash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldag'i "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-59-son qarori, "Shahar yo'lovchilar transporti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-, 16-moddalari va shaharlarda umumiy foydalaniladigan jamoat transportida ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifatini oshirish, jamoat transportida to'lovlar shaffofligini ta'minlash, yo'l haqini to'lashda transport kartalaridan foydalanishni rag'batlantirish va avtomatlasingha to'lov tizimini rivojlantirish hamda Farg'ona viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2024-yil 4-sentyabrdagi 01/11-17/4774-sonli xulosasiga muvofiq, Farg'ona viloyati Transport boshqarmasining 2024-yil 7-avgustdag'i 40/1045-sonli xati orqali taklif etilgan bir martalik to'lov tariflarini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6- va 25-moddalariga asosan

#### QAROR QILAMAN:

1. Farg'ona viloyatining shaharlarida, shahar yo'lovchilar transportida yo'lovchilar va bagaj tashish xizmatlarining cheklangan tarifi quyidagicha belgilansin:

**a)** avtobuslarda bir nafar yo'lovchi uchun yo'l haqi **3000 (uch ming) so'm;**

**b)** jamoat transportida naqd pulsiz to'lov tizimini jozibadorligini oshirish, mazkur tizimdan foydalanishda yo'lovchilarni keng jalb qilish, sohadagi yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish maqsadida **avtobuslarda elektron shaklda to'langan to'lovlar** (*transport kartasi, ATTO, bank kartalar,*) orqali bir nafar yo'lovchi uchun bir martalik rag'batlantiruvchi yo'l haqi tarifi **2400 (ikki ming to'rt yuz) so'm;**

**c) yo‘nalishli taksi (mikroavtobus)larda bir nafar yo‘lovchi uchun **4000 (to‘rt ming) so‘m**;**

**d) yo‘nalishli taksi (mikroavtobus) va avtobuslarda hajmi 60 sm x 40 sm x 20 sm dan 100 sm x 50 sm x 30 sm.gacha bo‘lgan va uzunligi 150 santimetrdan 200 santimetrgacha bo‘lgan buyumlarni hamda o‘lchamidan qat’iy nazar, og‘irligi 20 kilogrammdan ortiq bo‘lgan bagajni olib yurish, tarifga muvofiq haq to‘lagan holda amalga oshiriladi;**

**e) yo‘lovchi hajmi 60 sm x 40 sm x 20 sm va og‘irligi 20 kilogrammdan ortiq bo‘lmasan qo‘l yuki hamda musiqa asbobini, 150 santimetrgacha uzunlikdagi buyumlarni, shuningdek qafasga solingan mayda hayvonlar va parrandalarni, aravachani (bolalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va boshqalarning aravachalarini), mayda bog‘dorchilik inventari, bolalar chanalarini o‘zi bilan birga bepul olib yurish huquqiga ega;**

**f) shahar yo‘nalishlaridagi avtobuslarda yo‘lovchilarining 7-yoshgacha bo‘lgan bolalari uchun haq undirilmaydi.**

2. Yo‘lovchilarining shahar yo‘lovchilar transporti avtobuslardan foydalanishlarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiyligida foydalaniladigan transportda yo‘lovchi tashuvchilar faoliyatini hamda ularni moliyalashtirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida” 2012-yil 17-sentyabrdagi 273-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqidagi 2020-yil 9-oktabrdagi 643-sonli qaroriga asosan qatnovlar soniga bog‘liq holda belgilangan, tarif rejalarini joriy cheklangan tarif narxiga asosan **2000 so‘mdan** hisoblangan holda narxlar **1-ilovaga** muvofiq va transport kartalaridan foydalanilganda almashish tariflari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Transport boshqarmasi (B.Safarov) mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, ikki kun muddatda qonunchilik hujjalariга muvofiq yo‘lovchilarini tashuvchi tegishli tashkilot va korxonalar bilan tuzilgan tanlov (tender) shartnomalariga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

4. Farg‘ona viloyat hokiminining 2023-yil 15-dekabrdagi “Jamoat transportida tarif tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi **434-11-0-Q/23-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.**

5. Mazkur qaror “Farg‘ona haqiqati” va “Ferganskaya pravda” gazetalarida rasman e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari X.Isaqov va Farg‘ona viloyat Transport boshqarmasi boshlig‘i B.Safarov zimmalariga yuklansin.

**Viloyat hokimi**



**X. Bozarov**

Yo'lovchilarning shahar yo'lovchilar transporti — avtobuslardan foydalanishlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-sonli qaroriga asosan qatnovlar soniga bog'liq holda belgilangan,

### TARIF REJALARINING NARXLARI

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Tarif turlari	Tarif turidagi qatnovlar soni	Tarif rejalarining narxi, so'm
		(kun)		
1.	“AV” avtobus, elektrobus — aholi uchun*	1	-	7700
		5	22	33000
		7	-	47000
		10	44	67000
		15	66	101000
		20	88	135000
		30	130	200000
		90	-	600000
		180	-	1200000
		365	-	2300000
2.	“N” avtobus, elektrobus — pensionerlar va nogironlar uchun**	1	-	3850
		5	22	16500
		7	-	23500
		10	44	33500
		15	66	50500
		20	88	67500
		30	130	100000
		90	-	300000
		180	-	600000
		365	-	1150000
3.	“T” avtobus, elektrobus — talabalar uchun**	1	-	3850
		5	22	16500
		7	-	23500
		10	44	33500
		15	66	50500
		20	88	67500
		30	130	100000
		90	-	300000
		180	-	600000
		365	-	1150000
4.	“O” avtobus, elektrobus —	1	-	3850

	o'quvchilar uchun**	5	22	16500
		7	-	23500
		10	44	33500
		15	66	50500
		20	88	67500
		30	130	100000
		90	-	300000
		180	-	600000
		365	-	1150000
5.	"B" bepul — O'zbekiston Respublikasining "Shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanishni tartibga solish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq transportidan bepul foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar uchun	30	60	0

**Izoh:**

\* Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi:  $n*2000-23\%$ ;

\*\* Tarif rejalarini narxini hisoblash tartibi:  $n*2000-23\%-50\%$ , bunda:

$n$  – transportda qatnovlar soni;

2000 so'm – yo'l chiptalarini hisoblash uchun qabul qilingan cheklangan tarif;

23 % — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qarori bilan to'liq qiymatidan belgilangan chegirma miqdori;

50 % — O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-oktabrdagi 643-son qarori bilan, chegirishni hisobga olgan holda, tarif rejasi qiymatidan qo'llanadigan imtiyoz.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "Jamoat transportini isloh qilish to'g'risida"gi PQ-59-sonli qaroriga asosan,  
yo'lovchilar shahar yo'lovchilar transporti — avtobuslardan foydalanishlarida  
to'lovlar transport kartalari orqali amalga oshirilganda almashish**

**TARIF REJALARINING NARXLARI\***

T/r	Tarif rejalarini nomlanishi	Almashishturlari	Tarif rejalarining narxi, so'm
1.	1 soatlik A+A+A+A	birinchi avtobusda to'lov	<b>2400</b>
		ikkinchi avtobusda to'lov	<b>1600</b>
		uchinchi va keyingi avtobuslarda to'lov	<b>0</b>

***Izoh:*** \* mazkur tarif rejalarini narxi faqat bir transport turi uchun transport kartalari orqali to'lov amalga oshirilganda qo'llaniladi.